



EVERESTNI ZABT ETGAN BIRINCHI O'ZBEKISTONLIK ALPINIST



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dunyodagi eng baland Everest cho'qqisini zabt etib, unda davlatimiz bayrog'ini hilpiratgan qahramon alpinistimiz Sergey Denisenkoni "O'zbekiston ittifoqi" faxriy unvoni va "Trailblazer" avtomobili bilan mukofotladi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Abdujabbor Abduvaxitov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari — Prezident Matbuot kotibi Sherzod Asadov, davlat va jamoat

tashkilotlari vakillari, jurnalistlar ishtirok etdi.

Sergey Denisenko eng murakkab yo'nalishlardan biri bo'lgan janubiy qiyalikdan Everest cho'qqisini zabt etgan birinchi o'zbek alpinisti.

U bolalikdan ko'p vaqtini tog' oromgohlarida o'tkazgan, sayohat qilgan. 2007-yilda Sergey

Denisenko o'zining reklama agentligini ochdi, sanoat alpinisti sifatida faoliyat ko'rsatdi.

S.Denisenko 8848,86 metr balandlikda joylashgan dunyodagi eng baland Everest (Jomolungma) cho'qqisiga chiqishga uzoq vaqt va puxta tayyorgarlik ko'rdi. Shuningdek, bu Sergeyning birinchi yutug'i emas. 2019-yilda u Nepalidagi Mera cho'qqisini zabt etgan edi.

Ammo Everest har doim uning eng katta orzusi bo'lib kelgan,

bugunga kelib esa u haqiqatga aylandi. 2021-yil 11-aprelda Nikita Balabanov guruhi tarkibida "Kular" jamoasi bilan uning Everestga ekspeditsiyasi boshlandi. Noqulay ob-havo sharoitida iqlimlashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. Ob-havoning keskin o'zgaruvchanligi ko'tarilish imkonini bermasligi mumkin edi. Ammo sabrmatonat va dunyoning eng yuqori cho'qqisida turishga bo'lgan xohish ustunlik qildi.

O'ZA

FAXR

TERMIZGA ILM IZLAB KELGANDIM, BIR BUTUN BAXT TOPDIM

Inson hamisha baxt, omad qidirib yashaydi. Tole kulib boqsa-yu yaxshi kunlar boshing uzra charx uraversa, ilohiy hikmat, mo'jizaga chulg'anasan, kishi. Men bugun shunday baxtiyor o'zbek qiziman! Ikki yil muqaddam puxta bilim olish, o'z iqtidorimni namoyon qilish maqsadida onam bilan Termiz shahriga ko'chib kelgandik. Termizdagi 1-son al-Hakim at-Termiziy nomidagi yosh fizik va matematiklar maktab-internatida o'qish barobarida ijodiy izlanishlarimni ham davom ettirdim.



2018-yilda "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida muvaffaqiyatli qatnashdim. 2019-yilda Afg'onistonda bo'lib o'tgan "Kangourou" matematiklar festivalida xalqaro sertifikat bilan taqdirlandim.

Mening intilishlarim, uztozlarim ko'ma'gi natijasida 2020-yilda "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti sohibi bo'ldim. Bu yil esa O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi Respublika "Ittifoq" sardori bo'lishga erishdim.

Bugun onam ikkimiz yana qo'shaloq quvonchni qarshiladik. Bizga Prezidentimiz Termiz shahrida qad rostlagan ko'p qavatli xonadonlardan 2 xonali uyni topshirdi. Davlatimiz rahbari xonadonimizga tashrif buyurib, biz bilan samimiy muloqotda bo'ldi. Suhbat asnosida mening yutuqlarimdan suyungan Shavkat Miromonovich menga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatib, "Spark" avtomashinasini sovg'a qildi!

Bularning bari onajonimning ruhiyatini ko'tarib, qalblarini quvonch-u shodlikka to'ltdirdi. Onam — Nazira Rahimova 1970-yilda Denov tumanida tug'ilgan. 15 yildan buyon birinchi guruh nogironi. Meni oq yuvib, oq taragan, baxt-u iqbolimni ko'zlagan onamning hayajoni, quvonchini ko'rib shodlansam, hali hayotga endigina kirib kelayotgan men kabi oddiy qizni ardoqlab, e'zozlayotgan Prezidentimiz e'tibori, g'amxo'rligidan boshim ko'kka yetdi.

Maqsad sari qat'iy intilishdan aslo to'xtamaslik lozim. Shunda har bir insonga omad va zafar eshiklari ochiladi. Termiz shahriga ilm izlab kelgandim, toleyim qolib, bu yerda bir qator yutuq va muvaffaqiyatni qo'lga kiritdim. Menga bildirilgan ulkan ishonch hamda rag'batni a'lo xulqim, ilm-u iqtidorim va Vatanimga munosib farzand bo'lish bilan oqlashga va'da beraman.

Ruxshonabonu
ABDURAZZOQOVA,
Respublika
"Ittifoq" sardori

XALQ BILAN MULOQOT

NAKURT "YO'L" I

Nakurt — Samarqand viloyati, Payariq tumanining eng katta qishloqlaridan biri. Katta-katta mamlakatlarda ham kichik-kichik ko'ngilsizliklar bo'lgani kabi, bu yerda ham yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Aholining dardini eshitadigan odam bo'lsa kifoya...

Nakurt qishlog'i mustaqillikdan oldin — 1972-yili elektr toki bilan ta'minlangan. 1978-yilda tuman markaziga olib boruvchi asosiy yo'lga asfalt yotqizilgan. Oradan 40-50 yil o'tgan bo'lsa-da, shu paytgacha na yo'l, na elektr



energiya tizimlari joriy ta'mirdan chiqmagan. Qishloq ahli egilib, bukchayib qolgan yarim asrlik simyog'ochlardan foydalanib, o'ydim-chuqur yo'llarda yurib, umrguzaronlik qilm-

oqda. Ular murojaat qilmagan muassasa yoki mutasaddi tashkilot qolmadi hisob. Afsuski, hamon natija yo'q.

Davomi 4-sahitida.



Shahobiddin ZOIROV,
O'zbekiston terma jamoasi a'zosi,
Osiyo va jahon chempionati hamda
Olimpiya o'yinlari g'olibi

Bugungi kunda biz, sportchilarning nufuzli musobaqalarda munosib ishtirok etib, ulkan marralarni zabt etayotganimiz yurtimizda sportni rivojlantirish uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar samarasi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

PREZIDENTIMIZ TABRIGI BIZLARNI YANGI MARRALAR SARI UNDAMOQDA

24-31-may kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatining 52 kilogrammgacha vazn toifasida ishtirok etib, oltin medalni qo'lga kiritdim. Musobaqa davomidagi har bir jang oldidan menga muvaffaqiyat tilab duo qilayotgan xalqimizni, Prezidentimiz ishonchini his qilgan holda g'alaba sari intildim. Natijada Osiyo chempioni, degan sharafli nomga sazovor bo'ldim va ushalmagan orzumga erishdim. Shu kunga qadar Olimpiya o'yinlari va jahon chempionatida shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olgan bo'lsam-da, qit'amiz birinchiligining oltin medalini qo'lga kiritma olmagan edim. Ulkan e'tibor va qulay sharoit natijasida bu orzum ham ushaldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Osiyo chempionatidagi muvaffaqiyatlarimni yuqori baholab, terma jamoamizga tabrik yo'lladi. Bu biz uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi. Mamlakatimizda bizni kutib olish uchun uyushtiril-

gan marosimda ushbu tabriknii o'qib eshittirishar ekan, u yerda bizga bildirilgan ishonch, kamtarona mehnatlarimizning ulkan baholangani bizni yangi marralar sari undadi, qalbimizni g'urur va iftixorga to'ldirdi.

Endi esa oldimga yana bir ulkan maqsad qo'ydim: joriy yil Yaponiyada bo'lib o'tadigan "Tokio-2020" Olimpiya o'yinlarida ham munosib ishtirok etib, 2016-yilgi Olimpiyada musobaqalaridagi kabi shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olmoqchiman.

Bu ulkan maqsadga erishish uchun tinimsiz mehnat, yuqori darajadagi tayyorgarlik kerak. Bunda esa Prezidentimizning 2017-yil 9-martdagi "O'zbekiston sportchilarini 2020-yil Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida"gi, 2021-yil 29-apreldagi "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari muhim dasturlamal bo'lmoqda.

CHIQUINDILARDAN IXTIROLAR YARATAYOTGAN O'QUVCHILAR

Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumaniga qarashli 18-umumta'lim maktabida chiqindilardan samarali foydalanib, yangiliklar ixtiro qiladigan ijodkor o'quvchilar ko'p. Ulardan biri 7-sinf o'quvchisi Nuriddin Bukenbayev.

Nuriddin texnologiyalarga juda qiziqadi. Yaqinda u uyidagi bo'sh qutilar, baklajka, eski o'yinchoq, temir-sim, yaroqsiz holga kelib qolgan soch quritgich, ya'ni fenlardan foydalanib, mo'jazzgina ventilyator ixtiro qildi. Ushbu ventilyator juda ixcham va qulay bo'lgani bois, bemaol xonalardan xonalarga ko'chirib o'tkazib foydalanish mumkin. Ventilyatorning simini rozetkaga ulasalgiz kifoya. Zum o'tmay sizga salqinlik baxsh etadi.

— Yaqinda tuman hokimligi tomonidan maktabimiz qizlariga mehnat fani darsida foy-

dalanishi uchun to'rt dona tikuv mashinasi berildi, — deydi mazkur maktab direktori, Xalq demokratik partiyasidan tuman Kengashi deputati Gulzira Elibayeva. — O'quvchi qizlar uylarida foydalanilmay yotgan matolar yoki kichrayib qolgan kiyim-kechaklarning yaroqli joylarini olib, ulardan turli qo'g'irchoqlar, singillari uchun kiyimlar, choynakpo'shlar, o'zlariga yubka-koftalar tikishmoqda. O'quvchi yigitlar eski disk hamda temir parchalaridan velosiped yasashsa, qizlar unga turli mato hamda iplardan foydalanib, bezak


berishadi. Bunday ish jarayoni ularni ijodkorlikka va hamjihatlikka undaydi.

O'ninchi sinf o'quvchilari Abdujabbar Sattorov hamda Shavkat Mirakarbarovlar ham yaroqsiz mahsulotlarga ishlov berib, quyosh batareykasini yaratishgan.

— Ushbu batareykani yaratishda quyoshdan nur olish uchun bir donagina batareyka, yog'och, eskirgan fenning motorchasi hamda yelim kerak bo'ldi, — deydi Abdujabbar Sattorov. — Qish faslida kunduzi ushbu quyosh batareykasini tashqariga qo'yib qo'ysangiz,

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
Yosh maslahatchilar Kengashi

YIG'ILISHI



“YOSH MASLAHATCHILAR” KENGASHI FAOLIYAT BOSHLADI

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzurida tashkil etilgan “Yosh maslahatchilar” kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

“Yosh maslahatchilar” kengashi a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Bola huquqlari bo'yicha Ombudsman, Yoshlar parlamenti a'zolari, keng jamoatchilik hamda jurnalist va blogerlar ishtirok etgan tadbirda Agentlik qoshida tashkil qilingan “Yosh maslahatchilar” kengashi faoliyatiga start berish, ommalashtirish hamda kengashning tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash kabi bir qator tashkiliy masalalar muhokama qilindi.

Tadbir doirasida kengash raisi, kotibi va o'rinbosarlari saylandi.

“Yosh maslahatchilar” kengashining asosiy maqsad va vazifasi mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini baholashda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatani rivojini yo'lida daxldorlik ruhida tarbiyalash, o'z tengdoshlari muammolari yechimini izlashda davlat idoralari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yoshlar tashkilotlari faoliyatiga amaliy ko'mak berishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar komissiyasi a'zolari tomonidan bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosati yo'nalishidagi mavjud muammolarni ro'y-rost ko'tarish, yoshlarni qiyinayotgan muammolarga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish orqali tizimli monitoring ishlari tashkil qilish — kengashning doimiy vazifasi bo'lishi kerakligi aytib o'tildi.

Kengash tomonidan mustaqil organ sifatida bola huquqlari, erkinliklari va

qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari bo'yicha Ombudsman bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib borish bo'yicha uzoq yillik strategik yo'nalishlar kelishib olindi.

Shuningdek, mamlakat parlamenti vakillari bilan birgalikda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, siyosiy jarayonlarda



yoshlarning haqiqiy yetakchi sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydigan tizimli targ'ibot va tashviqot ishlarini doimiy ravishda amalga oshirish, pirovardida, yoshlarning qonunchilik tashabbuslari jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga erishish borasida hamkorlik o'rnatildi.

Ma'lumot tariqasida shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori “Yosh maslahatchilar” kengashi raisi hisoblanadi. Kengashning jami tuzilmasi doimiy ravishda 15 kishidan iborat bo'ladi.

**Gulnoza BOBOYEVA,
O'za**



batareykasi nurdan energiya olib, quvvatini oshiradi va kechqurun, ayniqsa, chiroq o'chgan paytlarda bemaol undan foydalanish mumkin.

O'quvchilar kelgusida quyosh batareykasining kattaroq hajmdagisini yaratish niyatida.

Tasviriy san'at fani o'qituvchisi Zamira Xidirovaning ta'kidlashicha, ijodkor o'quvchilarga xom ashyoni asosan ularning tengdoshlari, ya'ni maktab o'quvchilari yetkazib berar ekan. Har o'ning oxi-

rida maktabda chiqindilarni yig'ish kuni tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar uylaridagi eski qutilar, qog'oz, sut mahsulotlarining bo'shagan idishlari, mayda temircha yoki sim, xullas, ixtiro uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasini tashlab yubormay maktabga olib kelib topshirishadi. Iqtidorli o'quvchilar esa ulardan unumli foydalanishadi.

**Nigora RAHMONOVA,
O'za**

30-IYUN — YOSHLAR KUNI

MUVAFFAQIYATNING KALITI YAGONA harakat

Jamiyatda faol yoshlarning ko'payishi ulkan yutuqdir. O'mak qilib ko'rsata oladigan yoshlarimiz talaygina. Ular o'zlarining ilmi, salohiyati va yosh bo'lsa-da, ko'pgina yutuqlarga erishayotgani bilan ham tahsinga loyiqdir. Sahifamiz qahramoni shunday yoshlardan biri — Dilshod Umrzoqov. U 1990-yil Samarqand viloyatida tug'ilgan, hozir Toyloq tumani hokimining o'rinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat olib bormoqda.

Quyida u bilan suhbatni e'tiboringizga havola etamiz.

— Yoshlik siz uchun nima?

— Yoshlik — yonib turgan ko'zlar, bilimga tashnalik, ulkan marralar sari intilish, yurakdagi o't, azm-u shijoat, tashabbuskorlikdir, — deydi Dilshod Umrzoqov. — Har bir yosh hayotida o'zining mustahkam va munosib o'rnini topishi uchun, eng avvalo, o'zining konsepsiyasini shakllantirib, bosh maqsadini aniqlab olishi lozim. So'nggi yillarda yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga keng e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bu tizimni tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilindi.

Men Toyloq tumani hokimining o'rinbosari — investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, yosh mutaxassis sifatida mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan tizimli islohotlar asosida tumanimiz, viloyatimiz investitsion salohiyatini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, "Temir daf-tar", "Ayollar daf-tari", "Yoshlar daf-tari"da turgan aholimizning turmush darajasini yaxshilash, ularni ish bilan ta'minlash bo'yicha yo'l xaritasi tuzib chiqqanman. Tuman hokimi rahbarligida yil yakuniga qadar ushbu daf-tarlarga kiritilganlarni ish va daromad manbayi bilan ta'minlash, muammolarini hal etish orqali ularni to'liq ro'yxatdan chiqarishni — "daf-tarlar"ni bo'shatishni rejalashtirganmiz.

Men hozirgi kunda Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutida o'qib o'z bilim-salohiyatimni, tajribamni oshiryapman.

— Inson hayotda o'z o'rnini topishida oilaning ahamiyati qanday?

— Hayotda oilaning o'rnini juda muhim. Sababi "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytishmagan. Oiladagi muhit, urf-odatlar, ota va ona munosabati, ota va farzand

munosabati asta-sekin o'rnak bo'lib, bola shakllanib boraveradi. Otam ingliz tilini yaxshi bilardi. Grant yutib Avstriya davlatida o'qib kelgani uchun mendagi ingliz tiliga qiziqishni ko'rib, til o'rganishimga sharoit yaratib bergan. Matematika va ingliz tilini yaxshi ko'rdim. Onam o'zim o'qigan maktabda rus tilidan dars berardi. Menda o'qituvchining farzandiman, a'lo baholarga o'qishim kerak, degan mas'uliyat ham kuchli bo'lgan.

Maktabni bitirib, akademik litseyga, so'ng Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Bank ishi" fakultetiga davlat granti asosida o'qishga kirdim. 3-kursda o'qib yurgan kezarim institutimizda Chexiya davlatining Praga shahriga aynan mening soham bo'yicha grant e'lon qilindi. Qatnashib, grant sohibi bo'ldim. Chet davlatda o'qib yurgan kezarimda bir narsaning guvohi bo'ldim. Bizda online savdo yaxshi rivojlanmagan. Bu tarmoqni o'zimizda rivojlantirishga harakat qilib, 2015-yilda "O'zbekistonda online savdoning ahamiyati" degan mavzuda maqola chiqarganman. Maqolam Kun. uz sayti va boshqa bir necha saytlarda e'lon qilingan.

— Jamiyatda faol va no-faol yoshlar qatlami uchraydi. Nofaol qatlam yurtimizda nisbatan ko'p. Sizingcha, bunga asosiy sabab nima?

— 8-sinfligimda ota-onam menga kompyuter sovg'a qilishgan. Men chet davlatga o'qishga ketgunimcha kompyuterni zo'r bilaman deb o'ylardim. Chunki chindan dasturlash, grafika bo'yicha ko'p narsalarni bilardim. Lekin chet elga borganida bilimlarim hali juda oz ekanini tushundim. Yaqinda "Besh tashabbus"ga bag'ishlangan tadbirda Toshkent shahar hokimi Jahongir Ortixojayev jamiyatdagi no-faol qatlam haqida shunday dedi: "Biz nofaol deytogan qatlamda ham qanchadan-qancha o'z iqtidorini ko'rsata olmayotgan yoshlar bor". Juda to'g'ri gap, chunki nofaol

deytoganimiz ham faol qatlarga qo'shila oladi. Ularga to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan, ishonch bildiradigan insonlar kerak. Ularga bildirilgan ishonch kun kelib mevasini beradi.

— Hayotingizni kitob deb qaraydigan bo'lsak, siz hozir qaysi sahifasidasiz?

— Hali boshlang'ich sahifadaman... Chunki hali oldimga qo'ygan maqsadlarim ko'p. Yaqinda 30 yoshni qarshi olaman. O'ylab qarasan, hozir erishgan yutuqlarim yoshimga nisbatan kamdek ko'rinadi. Inson nimagadir intilsa, albatta, uni amalga oshira olarkan. Biror ishni boshladimi, uni tugatishga harakat qilishi kerak. Tugatganda ham eng yaxshisi bo'lib tugatishi kerak. Inson o'ziga hayotni o'zgartira oladigan inson sifatida qarashi lozim. Chunki biz o'zimizni doimiy nazorat qilib, o'zimiz uchun motivatsiya topa olsak, hayotda ko'plab yutuqlarga erishamiz.

— Yigit kishi oilada ham rahbar bo'ladi. Sizingcha, jamiyatdagi rahbarlik bilan oiladagi rahbarlikning qanday bog'liqlik tarafi bor?

— Rahbarlik bu, birinchi navbatda, mas'uliyat. Yigit kishiga birinchi rahbarlik nafaqat oilada, balki maktabda sinf sardori bo'lganida yoki guruhda lider bo'lganida, oilada aka yoki uka sifatida kimnidir himoya qilganida beriladi. O'zining oilasidagi rahbarlik maktabdagi, guruhdagi rahbarlikdan biron mas'uliyatiroq. Ammo buroq shunday yoshlar borki, oila rahbarligidan oldin, ya'ni oila qurmasidan jamiyatdagi rahbarlik lavozimlarini egallamoqda. Bu, albatta, katta imkoniyat va iqtidorning yorqin namunasidir. Ikkinchisi ham mas'uliyat bilan boshqara olgan insonda muvaffaqiyatga erishish, o'z sohasining mukammal mutaxassisi bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi. Chunki oilada tinch muhit bo'lsa, faoliyatda ham doimiy yuksalishlar kuzatiladi.

Mashhura NASRIDINOVA suhbatlashdi.

Yevropa ittifoqi tomonidan 12 ming yevro grandni qo'lga kiritgan 23 yoshli Hilola To'xtamurodova haqida maqola tayyorlashga ahd qilganimizning boisi, qiyinchiliklarga bo'yin egmagan va aniq maqsadlar bilan harakat qilayotgan qizlarni namuna qilib ko'rsatishdir. Hilola To'xtamurodova "Dunyo sen bilan" nomli Daun sindromiga chalingan bolalarning hunar o'rganishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy loyiha muallifi. Uning bu loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan yuqori baholanib, 12 ming yevro mablag' bilan moliyalashtirilgani o'zbek qizlari uchun faxr.



DUNYO SEN BILAN...

Joriy yilning 20-23-mart kunlari Qirg'iziston Respublikasining Bishkek shahrida tashkil etilgan xalqaro yoshlar festivalida Hilola ham Daun sindromi bor bolalar bilan ishlashga qaratilgan ilmiy-metodik qo'llanmasi, shuningdek, mamlakatimizning 11 hududida 276 nafar "quyoshli bolalar"ga hunar o'rgatgani haqida loyiha natijasi va tahlillarini xorijliklar e'tiboriga havola etdi.

— Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish kerakligi haqida ko'p gapiriladi. Ammo jamiyat ular bilan muloqotga qanchalik tayyor? — deydi Hilola To'xtamurodova. — Daun sindromli bolalar juda mehribon, sabrli va oqko'ngil bo'ladi. Hech qachon yolg'on gapirmaydi, hammani birdek yaxshi ko'radi. O'z olamida yashaydi. Ular — "quyosh bolalari", ya'ni har biri bolakay quyoshli. Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalar boshqa bolalarga nisbatan aqliy va jismoniy rivojlanishdan ortda qolishi kuzatiladi. Ular o'z oila a'zolariga o'xshagani bilan yuz tuzilishi jihatidan ham-madan ajralib turadi. Kasallikni davolab bo'lmasa-da, Daun sindromi bilan tug'ilgan bolaga maxsus jismoniy va aqliy muolajalarni o'tkazib, uning rivojlanishini yaxshilash, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun imkoniyat yaratib berish mumkin.

Yurtimizda bu kabi bolalar uchun ijtimoiy loyihalar tizimli

ravishda tashkil etib kelinmoqda, o'tgan yili BMTning taraqqiyot dasturi ishtirokchilari o'zbekistonlik opa-singillar Daun sindromi bo'lgan bolalar uchun mobil ilova ishlab chiqqani e'lon qilingan edi. Bunday ilova ishlab chiqishlariga 18 yoshli Nas-tarinlar oilasida ham "quyoshli bola" dunyoga kelgani sabab bo'lgan.

— Ukamiz tug'ilganida bu diagnoz haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas edik, — deydi loyiha muallifi. — Ota-onam "shok" holatiga tushishgandi. Ularning tushkunlikni yengib o'tishi juda qiyin kechdi. Jamoatchilik fikri ham yordam bermadi. Shundan so'ng singlim bilan "Sun Child", ya'ni "Quyosh-bola" mobil ilovasini ishlab chiqdik. Dasturni takomillashtirish va undan dunyo bo'ylab foydalanishlari uchun chet tillarda ham ma'lumotlar yuklab, dasturni ommalashtirish maqsadimiz.

Bugun temirdek iroda-si va guldek nozikligi bilan katta-katta loyihalarga qo'l urayotgan, intilayotgan qizlar bir kun kelib aqliy, mehribon ona bo'lishi shubhasiz. Ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, ochilayotgan eshiklar esa mamlakatimiz kelajagiga qo'yilayotgan mustahkam poydevor demakdir.

Marjona JO'RAQULOVA,
Respublika "Ittifoq"
sardori

NAKURT “YO‘L”I

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Mehnat faxriysi Mustafo Avazovning aytishicha, yo'lga hech qaysi rahbar e'tibor qaratmaydi. Mahalla faollarining murojaatlari inobatga olinib, mutasaddilar atigi bir marta paypoq yamaganday qo'l uchida "yamochniy remont" qilishgan. Shundan keyin qishloq yo'li umuman ta'mir ko'rmagan.

Yo'lsozlar ketishgandan so'ng, oradan bir oy o'tib, ahvol yana avvalgidan-da abgor holatga tushgan, aslo yaxshilanmagan.

— Men viloyat hokimi bilan uch marta uchrashganman. Yo'l muammosini hamisha ko'targanman. Haligacha natija yo'q. Va'da berishadi, ta'mirlaymiz deyishadi, amaliy ishga kelganda, bu gaplar va'daligicha qolib ketaveradi. Nakurt mahallasida 7 mingga yaqin aholi yashaydi, uka. Fuqarolar har kuni o'z yumushi bilan tuman markaziga borib keladi. Bozor-o'char, shifoxona yoki boshqa zarur ishlar borki, markazga bormasdan bitmaydi. Afsuski, qishlog'imizdan tuman markazigacha taksilar odam boshiga 20 ming so'mdan qatnaydi. Chunki yozda chang, qishda loy bu ko'chalarda ulov yura olmaydi-da... — deydi mehnat faxriysi Nurmat bobo Rustamov.

Qishloqqa kiraverishda, yo'l chetidagi "vulkanizatsiya"ga ko'zimiz tushdi. Bu yerda qishloq tez tibbiy yordam mashinasi ikkala orqa g'ildiraklarini yamatayotgan ekan. Payariq tuman tibbiyot birlashmasining tez tibbiy yordam bo'limi, Nakurt shoxobchasi feldsheri Farmonqul Ochilovni suhbatga tortdik.

— Chaqiruv bilan ketayotgandik. Mashinamiz g'ildiragi teshildi. Bu holatga o'rganib ketganmiz. Yo'l nosoz bo'lgani uchun chaqiruvga vaqtida yetib borolmaymiz, bemorlar uzoq vaqt kutib qoladi. To'g'risi, odamlarimiz ham bunga o'rganib ketishgan. Agar yo'l ta'mirlansa, hozir bemorlarning uyiga bir yarim soatda borayotgan bo'lsak, keyin uzog'i bilan yarim soatda yetib kelardik...



Atrofdagi bizni kuzatib turgan nuroniy bobo suhbatga qo'shiladi:

— Yo'limiz 1978-yilda qurilgan bo'lsa, u juda qisqa muddatda abgor holga kelgandi. Sifatli qurilmagan-da, uka! Eslayman, 2005-yilgacha tuman markazigacha avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgandi. So'ng yo'l talabga javob bermasligini bahona qilib avtobus qatnovi to'xtatildi. Viloyat Avtoyo'lga, tuman yo'l boshqarmasi va tuman hokimligiga mahalla faollari yig'ilib, ko'p marta murojaat qilganmiz. Har doim va'dabozlik, amaliy natija yo'q...

Ha, o'ydim-chuqur yerlarni, fuqarolar tili bilan aytganda, go'yo paypoq yamaganday shag'al bilan ko'mib chiqish orqali masala hal bo'lib qolmaydi. Qishning qirovli kunlari, yog'ingarchilik mavsumida yolg'on-yashiq "ta'mirlangan" yo'llar birma-bir "hunar"ini ko'rsata boshlaydi. Kasalni yashirgan bilan uning isitmasi oshkor qiladi...

Nakurt mahallasidan tuman markazigacha masofa 50-60 kilometrni tashkil etadi. Qishloq faollarining tuman markazigacha avtobus qatnovini yo'lga qo'yish uchun ham murojaat qilmagan yeri qolmagan. Afsuski, mutasaddilar kelib, yo'lning holatini ko'rganidan so'ng, bu yerda avtobus yura olmasligini, atrofdagi yo'l belgilari yo'qligini ro'kach qilishgan. Aslida, bu masalalarni mutasaddilarning o'zlari hal etishmaydimi?

— Qishloqqa qaysi rahbar, hokim yoki deputat kelib, yig'ilish o'tkazsa, har doim yo'l

muammosi ko'tariladi. Bu masala bir necha yillardan buyon respublika OAV'da ham yoritildi. Natija yo'q. Sizing gazetangizdagi maqola ham biror amaliy ish berishiga ko'zim yetmaydi, — deydi nafaqadagi quruvchi Sharof Siddiqov.

Sharof akaning alamli so'zlarida jon bor. Afsuski, so'nggi paytlarda mutasaddilarning e'lon qilina yotgan tahliliy-tanqidiy chiqishlarga munosabat bildirmasligi urfga kirdi. Samarqand viloyati hokimligi bu masalaga jiddiyroq qaraydi, degan umiddamiz. Axir, o'quvchilar qishloqdagi maktablarga 4-5, hatto 10 kilometr masofa bosib keladi. Bolalar necha yildirki bu holatdan aziyat chekmoqda.

Tumandagi biz borgan 48-maktab 120 o'ringa mo'ljallangan. Hozir bu dargohda 250 o'quvchi ertalabki va peshing navbatlar asosida ta'lim oladi. Sinf xonalari, o'quv jihozlari yetishmaydi. Kimyo-fizika xonalarida laboratoriya xarob ahvolda, asbob-uskunalar elektr ta'minotiga ulanmagan. Kompyuter yo'q. Sport zali qurilmagan. O'quvchilarning aksariyati kompyuterni yo'qib-o'chirishni ham bilmaydi. Bu masalalar o'z yo'lga, ayniqsa, qish kunlari dars tushdan keyin 13:00 da boshlansa, soat 17:00, 18:00 atrofiga tugaydi. Bu paytda kun kalta bo'ladi va 3-4 kilometr uzoqlikdan qatnaydigan o'quvchilar qiyinaladi. Natijada, davomat past bo'ladi, ularning o'zlashtirishi talabga javob bermaydi va hokazo.

2020-yil 17-aprel kuni chuchi

yog'ingarchilik va sel kelishi oqibatida 20 ga yaqin qishloqlarni bog'lovchi asosiy yo'l o'pirilgan. Hatto hozir ham yo'l o'rtasida 20 metr chuqurlikdagi jar mavjud. Bekto'bi qishlog'i bilan Boshmoq qishloqlari oralig'idagi bu jarlik atrofiga haydovchilarni ogohlantirish va xavfsizlik yuzasidan birorta yo'l belgisi o'rnatilmagan. Qishloqni yaxshi bilmaydigan biror o'tkinchi bu manzildan yurib qolsa bormi, qishloq ahlining qo'l'bola mehnati bilan qurilgan aylanma yo'l borligini bilmasdan, to'g'ri jarga tushib ketishi shubhasiz. Bunga zudlik bilan chora ko'rish zarur!

— Jarlik paydo bo'lishidan oldin yo'l ostiga ikkita politelin suv quvuri o'rnatilgan edi. Do'l yog'ib, kuchli sel kelishi oqibatida quvurlarni suv olib ketdi. Qo'l'bola o'rnatilgan suv quvurlari toshqinga bardosh berolmadi. Aslida, mutasaddilar bu yerni o'rganib, ko'priki qurishlari kerak. Ulardan sas-sado chiqmaganidan keyin biz shunday ta'mirlashga majbur bo'lganmiz-da. Mana, oradan bir yildan oshiq vaqt o'tgan bo'lsa ham, mutasaddilar hamon jim, qop-qop va'da berishadi-yu, amaliy ishga kelganda hamma og'ziga talqon solib o'tiradi, — dedi nuroniy-lardan Muhammad bobo Samarov.

Fuqarolar mutasaddilar e'tiborsizligidan, murojaatlari javobsiz qolayotganidan kuyunib gapirdi. To'g'risi, ishonmadik. Samarqand viloyatida aholi murojaatlariga befarq qaralmaydi, degan qat'iy ishonch

bilan masalaga oydinlik kiritish maqsadida tuman hokimligining ishonch telefoniga sim qoqdik. Afsuski, operator yig'it rahbarlar yig'ilishda ekani, majlis tugasa, o'zlari darhol biz bilan bog'lanishini aytib, qo'l telefonim raqamini yozdi-da, go'shakni qo'ydi. Shu bilan hech kim biz bilan bog'lanmadi va keyingi to'ng'iroqlarimiz ham javobsiz qoldi. Xo'sh, hurmatli mutasaddilar, qo'l'bola hashar yo'li bilan qurilgan aylanma yo'llar-u barpo etilgan vaqtinchalik ko'priklar qachongacha dosh beradi? Bu yerdagi aholi yana qancha vaqt va'dalarga ko'milib yashashga mahkum? Qo'ng'iroqlarga javob bermaslik bilan masalaga oydinlik kiritib bo'larmikan?

Qishloq ahli ajoyib-da! Samimiylilik bor ularning gap-so'zlarida. Shunday sharoitda, abgor ahvolda yashayotgan bo'lsalar ham, ular shukr qilishmoqda. Ertangi kuniga ishonib, bu masalalar, albatta, qachondir hal bo'lishidan umid qilishmoqda. Gapi-ring, nima kamchilik bor yana, deganimizda, ular imkon qadar muammoni yashirib, yutug'ini oshirishga harakat qilishardi. Qaniydi, mutasaddilar ham atigi bir kun vaqtini ajratib, (tushunamiz, ishlari ko'p, vaqti tig'iz ularning) yo'l masalasini o'rganishsa, imkon qadar hal qilib berishsa. Axir, bu insonlar o'zlariga hech narsa so'ramayapti-ku, bo'lsa xalqqa bo'lsin, odamlarning og'iri yengil bo'lsin deyishyapti, xolos.

Abdulaziz AHMEDOV



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 29-apreldagi tegishli buyrug'iga asosan Geologiya fanlari universiteti poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Sayram" mahallasi bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Maqsad mahalla va maktablar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashishdan iborat.

UNIVERSITET VA MAHALLA HAMKORLIGI

Mahalla bilan yillik tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolar bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mahallada uyushmagan yoshlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Universitet tashabbusi bilan o'quvchilar uchun o'quv darslari tashkil etildi. Hozir universitet professor-o'qituvchilari yoshlarga tanlagan yo'nalishi bo'yicha o'quv darslari olib boryapti. Oliy o'quv yurtiga kirish istagida yurgan bitiruvchi-abiturientlar uchun ham guruhlar ochilishi rejalashtirilgan.

— Mahalla bilan universitet hamkorligi mahalla yoshlarining kelajakda biron kasb tanlashlari, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlariga turtki bo'ladi, — deydi Geologiya fanlari universiteti Umumta'lim fanlari kafedrasini mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi Zarif Sobirov. — Ayrim yoshlarning ilmga intilishi yuqori, lekin oilaviy imkoniyati yetmasligi sabab to'garaklarga qatnash iloji yo'q. Universitet tashkil etgan bu to'garaklar ana shunday yoshlarga juda ma'qul bo'ladi.

Lobar QODIROVA

В Бухаре сегодня проходит молодежный форум «Иновационные идеи по развитию архивного дела».

Проведение такого рода мероприятий стало в Узбекистане традицией: делятся опытом работники сферы.



ТАКАЯ ПРОФЕССИЯ

КАЖДЫЙ ДЕНЬ С ИСТОРИЕЙ РЯДОМ

По решению ЮНЕСКО 9 июня 1948 года был основан Международный совет архивов, а на конференции МСА в 2007-м учрежден профессиональный праздник.

На форуме сотрудники Национального архива Узбекистана расскажут коллегам о создании электронного путеводителя. Почетная миссия возложена на представительницу отдела планирования и организационно-методической работы.

ОБЕСПЕЧИТЬ СОХРАННОСТЬ

У обывателя четко закрепилась ассоциация важной государственной структуры с местом выдачи справок: получил без проволочек – «Хорошо работают», пришлось обращаться не раз – «Чем они там только занимаются?!».


Директор Национального архива Узбекистана **Дилбар Закирова**, проработавшая в системе 30 лет, с улыбкой комментирует ситуацию:



– Если сравнить наш труд с раскидистым деревом, это лишь одна его веточка. В разных документах отражена история, и наша главная задача – обеспечить их сохранность. Самые ранние относятся к IX веку. Создан музей, где представлены копии наиболее интересных архивно-исторических материалов. Большой читальный зал. Ученые, писатели, журналисты, студенты, те, кто хочет глубже изучить родословную, могут бесплатно работать с интересующими их источниками. Люди должны видеть историю своей страны: она раскрывает множество тайн. Даже когда кажется, что ничего нового не узнаешь. Яркий пример – мемориальный комплекс «Парк Победы». Его созданию предшествовали кропотливые исследования сотен человек. В результате роль Узбекистана во Второй мировой войне предстала в утонченных цифрах и фактах.

Требование времени – перевод материалов в «цифру». Дает большие преимущества. И сохранность обеспечит, и пользование облегчит. Конечно, оцифровать все практически невозможно. Конечную точку ввиду непрерывного пополнения не определишь.

С удовольствием принимаем на работу молодежь. Как правило, идет к нам по велению сердца. Особенно радуют «семейные подряды»: вслед за матерью тянутся сыновья и дочери. Народная мудрость права: «Дерево цветет на одном месте».



В МОЛОДЕЖНОМ КОЛЛЕКТИВЕ

Начальник отдела планирования и организационно-методической работы **Мавлюда Шорахбарова** (стаж – 22 года) положила начало династии. Экономист по образованию, выросла до руководителя с архивных низов. Проявила себя во всех подразделениях отрасли. И жену нашла здесь для сына, который занимался оцифровкой документов. Трудясь бок о бок, будущие свааты познакомили детей. Так что в данном случае архив еще и вершитель судеб. Невестка – архивист. Мечтает продолжить династию и младшая дочь. Пригласила в отдел однокурсницу – экономиста **Ферузу Вахабову**. Новый научный сотрудник вполне вписывается в крепкую династию, ведь у студенческих друзей особое родство.

За столом священнодействуют. Бережно перелистывают пожелтевшие странички, отпечатанные на машинке. На руках перчатки. Во-первых, чтобы не испортить документ. Во-вторых, чтобы пользователи не пострадали от препаратов, которыми обрабатываются материалы, поступающие в архив. Необходимая мера, так как микроорганизмы или насекомые поедают бумагу независимо от ценности информации.

Отдел без преувеличения можно назвать молодежным (к слову, половина коллектива Национального архива Узбекистана – молодые сотрудники), где



для магистрантов созданы особые условия. Участвовать в онлайн-занятиях, zoom-конференциях можно прямо из кабинета. Немаловажный факт, говорящий в пользу будущих ученых, – все они бюджетники. Пишут работы под руководством доктора исторических наук **Мухайе Исаковой**, тоже старшего научного сотрудника отдела.

У НАС И ПО-ИСПАНКИ ГОВОРЯТ!

Юноши и девушки рассказывают о любви к делу, утверждая, что не променяют его на какое-либо другое. Дать же мини-интервью делегировали единодушно **Зульфийо Хасанову**, о которой не без гордости сообщили: «У нас и по-испански говорят!»

– Однажды попал сюда в библиотеку, – рассказывает старший научный сотрудник (оканчивает магистратуру НУУ по специальности «Документоведение, документалистика и архивоведение»), – и увидев за столами не только наших, но и иностранных ученых, поняла: мое место здесь. Приехала найти какую-нибудь оригинальную информацию по теме выпускной квалификационной работы, а обрела дело всей жизни. Поразила атмосфера. Тихо, прохладно, располагается к исследованиям.

Такая же атмосфера была в отделе. Встретили дружелюбно, с готовностью поддержать. Завотделом выделял час в день для работы со мной, объяснял тонкости обращения с документами. Вошла в курс довольно быстро. Мы изучаем источники и на их основе пишем статьи по деятельности архива, каких-то организаций, отдельных личностей. У меня скоро защита в магистратуре, тема – «Создание электронной базы архивных документов по эвакуации населения в годы Второй мировой войны».

Рабочий день идет по плану, обязанности четко распределены. Кто-то выявляет особо ценные документы, кто-то проверяет акты на уничтожение... Есть специальный перечень с указанием сроков хранения. Я работаю с фондом 314, связанным с эвакуацией. Еще занята в гранте по теме Холокоста. Музей жертв Холокоста заинтересовался материалами о гражданах еврейской национальности, эвакуированных в Узбекистан в годы Второй мировой. Кроме того, разбираю письма. Среди них бывают приглашения на международные курсы повышения квалификации. Например, в Летнюю школу архивистов в Казахстан. А вообще повы-



шение квалификации происходит поэтапно раз в три года. Нам, магистрантам, довелось помогать специалистам, которые изучали информацию о жертвах репрессий. В настоящее время идет реконструкция комплекса «Шахидлар хотираси», будет обновлена и экспозиция музея.

Владение испанским выручило на совместной выставке с архивом кинофотофонодокументов. Сначала стала разговаривать с гостями по-английски, а потом перешла на их родной.

За всех могу сказать: «Трудиться нравится!» Главное, усталости не чувствуем. Вместо нее – интерес. Работать в архиве могу посоветовать тем, кто любит историю и обладает усидчивостью, терпением, внимателен к деталям. Не просто работать – жить. Ведь мы как одна большая семья.

НИЧЕГО НЕ ПРОПАДАЕТ

Заместитель директора **Алижон Махамов** рассказывает о структуре архива, напоминающей ветвистое дерево. Отделов несколько: обеспечения сохранности, электронных архивов и микрофильмов, госучета и научно-справочного аппарата, использования архивных документов и публикаций, хозяйственный, по упорядочению архивных документов в организации, хранилище печатных изданий, спецфонд, лаборатория по консервации и реставрации... Были названы имена сотрудниц, беззаветно служащих архивному делу: полвека проработала здесь **Нина Юсупова** и около 50 лет – **Татьяна Фоменко**. Золотой человеческий фонд.

Алижону Вахабовичу пришлось ответить и на самый больной вопрос: «Почему в адрес архива столько нареканий от простых граждан?» Узнали, что за квартал поступило более 25 тысяч запросов. И опять прозвучала народная мудрость: «Риса без шалы не бывает». То есть в любом, даже идеально организованном, процессе люди несведущие найдут изъян. Из того, что попадает в архив, ничего не исчезает. Значит, причины нужно искать в организациях, небрежно относящихся к документации.

...В заключение узнала, что провожала меня к руководству **Татьяна Фоменко**. Услышанное от нее наполняет смыслом труд архивистов, архивариусов, научных сотрудников. Из телефонного разговора:

– Вы дома, **Татьяна Давлетовна**?
– Да, на **Чиланзарской**, 2.
А это, как известно, адрес Национального архива Узбекистана.






Весной в Сергелийском районе столицы состоялось открытие необычного объекта – точки общественного пространства, призывающего задуматься о проблеме переработки вторсырья. Презентация нового проекта Hashar Week: Joy – Sergeli стала и мероприятием творческого общения.

Сегодня у нас в гостях автор программы Hashar Week Суна Парк, рядом с именем которой в СМИ появился эпитет «неутомимая». Как иначе назвать человека, который успевает совмещать десятки дел? Международный политический эксперт, руководящий рядом проектов и компаний, делится мыслями о том, как каждый может минимизировать свой экологический след.

– Расскажите о динамике вашего первого проекта. Чего добились за эти годы, какие проблемы возникли, что пошло не так, как было задумано?

– Запущенный в 2019 году Hashar Week планировался как недельная кампания по привлечению внимания к вопросам экологии, в частности бытовых отходов. Уже при разработке понимала: это не разовая акция и мы пойдем дальше, продолжая тему устойчивого развития. Если старт окажется удачным, то идея достойна масштабирования.

Слоган «На Земле не так много места» – не простая фраза. Часто ли обыватель задумывается, куда отправится пакет с мусором, который он небрежно бросил в контейнер, и сколько таких пакетов появляется ежедневно в районе, городе, стране, в мире? Не придавая тому особого значения, мы



дружно превращаем планету в гигантскую свалку. Не случайный первый запуск проекта сопровождался рекламными щитами, отражающими реальность. Люди разных профессий, поглощенные собственными делами, не замечают наступления мусора, а он тенсит студента и балерину, спортсмена и будущую мать...

Меня спрашивали, почему в названии проекта фигурирует слово «хашар», которое зачастую воспринимается как субботник, этакая обязателька. Захотелось его реабилитировать – вернуть добрый исконный смысл. Хашар – бескорыстный коллективный труд, забота об экологии, и участвую в нем по велению сердца, искренне желая помочь.

Уникальность Hashar Week в том, что он возвращает нас к истокам: бережное отношение к окружающей среде издревле присуще узбекскому народу. Уважение к воде, пище, растительному и животному миру и неприятие расточительности. Не следует забывать уроки предков.

За эти годы добились немало. У нас много проектов в разных направлениях. Работаем с государственными и частными организациями, с населением.

Не всегда задуманное идет гладко, строго по плану. Когда беретесь за новую тему, которая раньше не поднималась на такой высокой общественной уровне, сталкиваетесь с неоднозначной реакцией, отсутствием благоприятной среды. Сложно менять привычки и мышление людей, но делать это необходимо.

– Когда Hashar Week охватит весь город и «пришел» ли в регионы?

– Пока работаем только в Ташкенте, но наша образовательная программа распространяется и на регионы. В основном посредством медиа, социальных сетей. В марте прошлого года запустили широко-масштабную образовательную кампанию Hashar Week Z avlod, в рамках которой посетили каждый виллают, охватили около ста школ, где проводились семинары и внедрялся отдельный сбор мусора.

Открыли при поддержке хокимията Сергелийского района первый центр работы с населением Hashar Week: Joy – Sergeli, включающий три направления: экологию,



образование и культуру. Это multifunctional общественное пространство. Здесь будут проводиться мастер-классы, лекции, показы немого кино, пантомимы, театральные постановки, ярмарки. Имеется и мини-библиотека. Шкаф с книгами для обмена. Центр призван повышать и культурный уровень жителей района. В день открытия состоялся мастер-класс для детей по живописи «Каким я вижу Сергели?».

В рамках направления «экология» это пункт приема вторсырья, где сергелийцы будут учиться правильно сортировать бытовые отходы. Тем более что есть наглядный пример разумного к ним отношения: материалы, из которых построен центр, получены на перерабатывающих предприятиях. Вырученные средства пойдут на благотворительность и развитие центра.

– Многие ли откликнулись на проект «Помоги своим мусором»?

– Хороший, добрый проект. Продолжает действовать до сих пор. В период карантина мы не могли проводить масштабных акций, мероприятий. Задумались, какое место самое посещаемое. Им оказались мусоросборники. Увеличилось количество доставок – следовательно, и одноразовых упаковок. Находясь дома, жители города могли уделять больше времени сортировке мусора. Решили локально в семи пунктах Мирабадского района совместно с партнерами внедрить систему приема отсортированных отходов от населения. Для учета ввели экопаспорта, фиксирующие сданное вторсырье. Средства, полученные за него, направляли на благотворительность. Сначала это была помощь малоимущим семьям: закупили продукты и развозили по домам. Затем заключили договор с фондом «Пища жизни», который помогает лицам без

определенного места жительства, устраивая каждую неделю горячие обеды. Средства от проекта до сих пор идут туда.

– Скептически настроенные жители столицы предполагают, что раздельно сдаваемый мусор в результате снова сваливается в общую кучу. Контролируется ли доставка вторсырья в пункты переработки?

– Скорее всего, мы имеем дело со стереотипом мышления. Просто у нас не существует раздельного вывоза мусора. Слишком дорого обойдется. Когда я жила в Лондоне, ежемесячно платила около 250 долларов за эту услугу.

В стране большой коммерческий спрос на сырье и существует много перерабатывающих предприятий. Люди, которые составляют цепочку этой индустрии, будь то работник приемного пункта или водитель мусоровоза, заинтересованы в доставке отсортированного вторсырья к месту назначения. Для них это заработок. Что касается контроля, это налаженная система.

СЛЕД, КОТОРЫЙ ТЫ ОСТАВИШЬ

– У вашей организации есть ряд других проектов...

– Некоторые связаны с государственным управлением. Даем рекомендации по определенным нормативным документам. Есть направленные в основном на население: «Помоги своим мусором», образовательные программы. Ориентированные на бизнес: «Зеленый офис», «Зеленое кафе», «Экологический менеджмент». Объединяет проекты главный принцип: экономический рост не должен идти вразрез с социальными и экологическими нуждами страны.

– Как осуществляются проекты «Зеленый офис» и «Зеленое кафе»?

– Они рассчитаны на организации, которые хотят разделять отходы на своей территории, то есть делают начальные шаги на пути экоматности. Предприниматели думают не только об экономической выгоде, но и о социальной составляющей своей деятельности – степени полезности обществу и о том, какой

экологический след оставляют. Сначала проводим аудит – либо приезжаем в офис, либо отправляем опросник. Затем тренинг для сотрудников о проблемах окружающей среды, отношении к отходам, самое главное, заостряем внимание на том, что может каждый сделать сегодня. Разноцветные урны в офисах появляются после обучения персонала.

Программа «Зеленое кафе» для ресторанов, кафе, кофен. Также учим заведения общественного питания, как стать более экологичными. Тренинги адаптированы для этой сферы. Затрагиваем специфичные темы: огромное количество одноразовых приборов, контейнеров для доставки, влажных салфеток. Объясняем, как экономить воду, электроэнергию, производить меньше пищевых отходов. Сложности возникают из-за низкого уровня экологической культуры посетителей.

Проект с Гёте-институтом – это внедрение стратегии по устойчивому развитию. Затрагиваются более широкие аспекты, в частности помогаем организации экологизировать все процессы ее деятельности.

Проведен детальный аудит (использование электроэнергии, воды, канцтоваров), организован ряд тренингов для коллектива, разработан видеокурс для обучающихся немецкому языку. Например, призывает не выбрасывать старую технику, а отправлять ее на утилизацию или передавать партнерам. На территории института имеется фуд-корт, проводится работа и с его сотрудниками на предмет минимизации ущерба от использованной одноразовой упаковки. В целом это программа экоматности, направленная на рационализацию деятельности.

– А как происходит обучение школьников бережному отношению к окружающему миру?

– Для них разработана специальная программа, о которой я говорила, когда рассказывала о связи с регионами. «Поколение Z» – дети, родившиеся в начале 2000-х, креативные и многозадачные. Они рано становятся самостоятельными и проявляют интерес к глобальным мировым проблемам. Естественно, к политике и экологии. Эту



любопытную аудиторию мы и должны приобщить к осуществлению своих идей.

Проводили интерактивные лекции (в том числе в регионах) и устанавливали урны для раздельного сбора мусора. Однако официально методику в систему народного образования не внедряли.

Совместно с Гёте-институтом (специальный отдел «Школы будущего») осуществлена программа перехода с простой школы на «зеленую».

Взяли 112-ю школу, где наша команда тоже провела ряд образовательных лекций, тренингов для педагогов. Здесь не только организуются уроки по экологии, тематические мероприятия, учащиеся умеют сортировать отходы. В дальнейшем собираются сделать компост и устроить им пришкольный участок. Происходит поэтапное преобразование учебного заведения.

В рамках этого проекта состоялась тренинги для активной группы учителей. Объявили набор в эко-клуб. Записались около 60 человек. Тематикой занятий стали «Правильные привычки», «Изменение климата», «Проблемы отходов». Обсуждение сопровождается интерактивными играми. Вывозили членов клуба и на мусорный полигон в Ахангаран. Думаю, каждому полезно там побывать. Запланированы экскурсии на перерабатывающий завод, плагинг (забор с параллельным сбором мусора) и посадка деревьев в Ботаническом саду. Ухаживать за деревьями будут сами дети.

– Когда вы впервые задали себе вопрос: «Чем я могу помочь природе?» – и как отвечаете на него?

– Задумываясь о месте человека в этом мире, понимаешь, что вокруг расширяется производство, процветает вешизм. Когда приходишь к этому с философской точки зрения, появляется мотивация принимать иные решения. Скажем, в выборе бизнес-или социальных проектов.

Не могу сказать, что задала себе вопрос: «Чем я могу помочь природе?» Скорее, «Чем могу помочь этому миру и что, на мой взгляд, в этом мире не так? В упаковке общества, в экономике». Так как я по образованию психолог, смотрю на вещи в макроперспективе. Экология сегодня одна из тех сфер, которые наиболее пострадали от техногенного развития и участия в нем человека.

– Семья поддерживает вашу точку зрения?

– Мои родители очень осознанно относятся к окружающему миру. Все задумываемся

о том, какая от нас польза обществу. Стараемся в своих ежедневных практиках минимизировать отходы, экономить свет, воду.

– Так как же, по вашему мнению, нужно с ранних лет воспитывать бережное отношение к тому, что нас окружает, на государственном уровне?



– Безусловно, это необходимо. Мы разработали целую методологию по экологическому образованию и экологической культуре для дошкольников. В рамках этой программы взяли 13 детских садов, где апробировали свою методику. Здесь и дидактическая игра, и образовательный компонент. Трудность заключается в том, что дети учатся одному, а на практике сталкиваются с другим. Ребенок на занятии с азартом раскладывает пластик и бумагу по предназначенным для них коробочкам, а дома видит, как родители все выносят в одном пакете или, что еще хуже, выбрасывают баклажки или одноразовые контейнеры прямо с балкона. Или мальчишка идет чистить зубы со специальным стаканчиком для воды, а отец на его глазах моет машину из шланга. Происходит конфликт. Дети не понимают, кто прав: их любимые родители или специалисты, которые говорили, как важно беречь окружающий мир?

– Что в своей деятельности считаете самым важным?

– Чтобы уровень влияния моей работы измерялся положительными изменениями в жизни людей. Если моя деятельность делает жизнь хотя бы одного человека лучше, то я буду абсолютно счастлива.

– Если б вам предоставили возможность ввести в программу предмет «Отношение к природе», каким бы он был?

– Разноплановым, multidisciplinary, где говорилось бы не только о том, к примеру, как важно беречь дерево, но объяснялось это в современном контексте. Считаю, что отношение к природе – комплексный подход: следует анализировать деятельность человека, питание, флору,

фауну, их изменение в связи с развитием науки, технологий.

– Главная причина варварского отношения человека к окружающему миру...

– Краткосрочные, недальновидные решения, желание потреблять без осознания духовного смысла человеческого существования на земле.

– Какие мысли на вас навеяла пандемия?

– Разные. С одной стороны, она в какой-то мере иллюстрирует пагубное воздействие человеческой деятельности на мир. Излишние наши залечивания порождают новые виды заболеваний, с которыми уже гораздо труднее справиться. Вирусы и бактерии с точки зрения адаптации более гибкие, нежели человек. Подумала также о том, что природный мир намного сильнее нас, потому что маленький вирус смог практически парализовать все мировое сообщество. А к тому мусору, что производило человечество, в неимоверных количествах добавились средства индивидуальной защиты, которые нуждаются в особой утилизации. Ведь маски и перчатки бросали (и продолжают это делать) куда попало. С другой стороны, было грустно смотреть на то, что происходит. Думаю, людям нужно объединяться, более осознанно подходить к развитию общества.


– Что в своей деятельности считаете самым важным?

– Чтобы уровень влияния моей работы измерялся положительными изменениями в жизни людей. Если моя деятельность делает жизнь хотя бы одного человека лучше, то я буду абсолютно счастлива.

– Если б вам предоставили возможность ввести в программу предмет «Отношение к природе», каким бы он был?

– Разноплановым, multidisciplinary, где говорилось бы не только о том, к примеру, как важно беречь дерево, но объяснялось это в современном контексте. Считаю, что отношение к природе – комплексный подход: следует анализировать деятельность человека, питание, флору,

Беседовала
Ольга АЛЕКСАНДРОВА



КУЛЬТ СВЕТ

Об этом говорит вся махалля

Международный канал Euronews назвал нашу страну открытием Венецианской архитектурной биеннале.



«В качестве дебютного проекта Узбекистан выбрал то, что наиболее концентрированно и ярко отражает особенность традиционного уклада. Махалля –

не только типичный узбекский квартал, но и знаковая социокультурная модель, которая может быть интересна другим регионам», – отметила корреспондент канала Марта Брамбилла.

Большое внимание национальному павильону Узбекистана уделено и изданию New York Times. Журналисты пытались ответить на вопрос «Как пандемия изменила архитектуру?». В качестве примера также приводят махаллю, которая может стать лекарством против «анонимного одиночества граждан» – этого бича современного общества во многих развитых странах.

Бесценное богатство

Международная экспедиция исследовала объекты историко-культурного наследия Каракалпакстана. Цель – выработать стратегию для их включения в Список всемирного культурного наследия ЮНЕСКО.

В состав экспертной группы вошли отечественные и зарубежные специалисты в области археологии, архитектуры, истории. Данные собирали с использованием беспилотных летательных аппаратов. Четыре специализированные группы проехали более восьми тысяч километров.



В результате получены материалы по 53 памятникам региона, снято свыше 67 тысяч аэрофотографий и 144 видео. Результатом исследований станет детальная аэрофото съемка и трехмерная модель каждого объекта.

Как ожидается, это позволит разработать программу по включению уникальных объектов истории и культуры нашей страны в международный список ЮНЕСКО.

Идем на рекорд

В Узбекистане изготовили самую большую в мире рукописную страницу Корана.



По словам директора Центра исламской культуры Шоазима Миноварова, страница священной книги создана узбекским каллиграфом за шесть месяцев.

Это увеличенная копия страницы Корана XIV века, предназначенной для Шохруха Мирзы, третьего правителя империи Темуридов.

В ближайшее время будет подана заявка на включение шедевра в Книгу рекордов Гиннеса.

«Солнце на вкус»

В республике завершились съемки российско-узбекского фильма.

Кинематографисты из РФ проводили съемочный процесс в Бухарской, Самаркандской и Ташкентской областях. Оставшиеся эпизоды творческая группа отснимет уже в Москве.



Кинокартина создана в жанре фэнтези. Повествует об обычной московской семье, которая во время поездки в Узбекистан становится участником невероятных приключений – поисков клада бухарского эмира. Кастинги актеров проходили в двух странах, к съемкам привлечены такие звезды, как Андрей Мерзликин, Александр Ильин, Мухаммад Абдулхайров и другие.

Премьера фильма запланирована на осень 2021 года.

РАДОСТЬ В СТАКАНЧИКЕ

Охладишься и насладишься!

Ежегодно в мире потребляют около 15 миллиардов литров этого любимого детьми и взрослыми продукта. Каких только красочных упаковок и наполнителей для него не придумали! Едят его даже зимой, но самый пик популярности приходится на знойное лето: в среднем каждые три секунды продается порция мороженого. Даже праздник появился – Всемирный день мороженого. Отмечается 10 июня.

В жаркие дни стаканчики, рожки и брикеты манят покупателя, обещая короткий радостный отдых от жары. А вот здесь нужно проявить чуткость здравого смысла. Во-первых, не набрасываться на лакомство с жадностью, не успев остыть. Перепад температур до добра не доведет. Не хотите заработать ангину или ОРВИ – дайте угощению немного подтаять. Ешьте не спеша, крохотными кусочками. Чем дольше будет длиться удовольствие, тем меньше у простуды шансов. Есть на ходу опасно. К холодному «кусочку счастья» мигом прилипнет копыт от выхлопных газов, на него осядет пыль. Вы их даже не увидите, а организм почувствует. Мороженому нужна соответствующая обстановка. Лучшие варианты – дома или за столиком кафе.

Раз уж заговорили о санитарных условиях, самое время напомнить о «госте» столицы, прибывшем из Андижана. Вначале рекламный слоган утверждал: «Андижанское мороженое – украшение дастархана на ифторлик». Теперь многие о нем знают и некоторые непритязательные гурманы даже отдают ему предпочтение. Торгуют сомнительным продуктом где заблагорассудится. Некоторые продавцы облюбовывают обочины дорог. Удобно: водитель притормозил, купил десерт и продолжил путь. И ничего, что рядом стройка, что вафельные стаканчики находятся в далеко не стерильной коробке...

Пенсионерка Галина Г., увидев продавца с тележкой рядом с домом, решила оценить его товар. Молодой человек прекратил разговор по теле-

фону и взялся за стаканчик. Теми же руками, которые держали мобильник, брали деньги, катили нехитрое средство передвижения. Ни маски, ни перчаток, ни антисептика... Женщина от покупки отказалась.



К сожалению, не всем попадают аккуратные мороженщики, соблюдающие все санитарные нормы. К слову, истинные ценители лакомства распробовали в нем пальмовое масло.

Теперь о том, какое мороженое полезно, а какое нет. Классическое не должно содержать растительных жиров. Именно по этой причине когда-то прекратился экспорт из СССР этого замечательного продукта. Зарубежные партнеры отказались из-за нарушения технологии производства.

Напуганные пальмовым маслом, потребители удовлетворенно берут упаковку, где в составе указано ко-

косовое. Его, кстати, окрестили «экзотической отравой». Задумайтесь, почему за мороженым закрепилось название «сливочное». Так из чего его должны делать?!

Хотите точно знать ингредиенты – приготовьте холодное лакомство дома. И времени займет немного, и состав перед глазами. Инженер Владимир П. (35 лет) решил проверить, легко ли это сделать самому. Даже вручную взбивая сливки, справился за полчаса: «Вкус пломбира в вафельных стаканчиках. Того самого, из детства».

Покупая мороженое, во-первых, обратите внимание на его внешний вид: деформированный брикет, кристаллики льда на поверхности и нарушенная упаковка – веская причина отказаться. Наверняка не соблюдены условия хранения.

Как не бывает идеальных людей, так происходит и с продуктами: где-нибудь да отыщется недостаток. Есть у излюбленного лакомства миллиардов людей свои плюсы и минусы. Первое положительное качество – удовольствие. Второе – в мороженом много нужных для организма жирных и аминокислот, минеральных солей, ферментов, витаминов. Недаром же для него придумали название «конденсированное счастье».

К отрицательным относят высокую калорийность, возможные обострения заболеваний желудочно-кишечного тракта, повышение уровня холестерина, даже способность вызывать головную боль.

Руководствуясь принципом «ничего слишком», можно не отказывать себе в удовольствии. Человек сам способен определить границы собственной комфортности.

Вспоминается герой повести-сказки Лазаря Лагина «Старик Хоттабыч». Там волшебник Гассан Абдурахман ибн Хоттаб съедает целый поднос эскимо: «Это вкуснее самого дивного шербета. Даже при дворе царя Сулеймана ибн Дауда я не едал такой роскоши». Естественно, на подобные излишества мало кто способен, однако задуматься стоит: все хорошо в меру.

Итак, улучшайте настроение разумно, не перебарщивая, советуясь со своим организмом и соблюдая санитарные нормы. Вкусного вам мороженого!

Подготовила
Ольга ВОЛОДИНА

MUTAXASSIS MINBARI

Aholini ro'yxatga olish: UNING MOHIYATI NIMADA?

Tasavvur qiling, qo'lingizda O'zbekiston xaritasi va unga qarab hududlarga doir birlamchi ma'lumotlarni aytish mumkin. Masalan, Qoraqalpog'istonda qancha aholi yashaydi, Xorazmda bandlik masalasi qay ahvolda, Surxondaryoda nechta ta'lim muassasasi bor, Farg'ona vodiysida aholi zichligi qanday va shunga o'xshash boshqa muhim ma'lumotlar. Biroq yuzaki va taxminiy ko'rsatkichlar bilan bugungi jadal rivojlanish va islohotlar davrida uzoqni ko'zlab nimanidir reja qilish qiyin, albatta.



Qo'limizda har bir hududga doir aniq faktlar jamlansa, rejalarimiz ham, amallarimiz ham manzilli va puxta bo'ladi. Shuning uchun bizga butun respublikani qamrab oladigan ishonchli ma'lumotlar kerak va ular tadrijiy ravishda yangilab borilishi shart. Bunday aniq va yaxlit ma'lumotlarni esa aholini ro'yxatga olish asosida olinadi. Shunga qarab o'tmish va bugun haqida fikr-mulohaza yuritish hamda kelajakni farazlash mumkin. Shuningdek, bu aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumoti, oilaviy holati, bandligi va boshqa tavsiflari haqida ma'lumot olishning yagona manbai hamdir.

MUSTAQILLIK DAVRIDA BIROR MARTA BU JARAYON O'TKAZILMAGAN

Ma'lumki, 2015-yil 10-iyunda BMTning "2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyutsiyasi qabul qilingan va unga asosan, BMTga a'zo davlatlar kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilangan. Ayni paytda MDH mamlakatlarida bu jarayonga tayyorgarlik boshlangan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida biror marta bunday hisob-kitob ishlari olib borilmagan. Bunday sanoq so'nggi bor sobiq ittifoq davrida, aniqrog'i, 1989-yilda o'tkazilgan edi. Holbuki, xalqaro tajribadan ma'lumki, ko'pgina mamlakatlarida aholini ro'yxatga olish tadbiri kamida har o'n yilda bir marotaba tashkillashtirilishi an'anaga aylan-

gan. Respublikamizda ham endi ana shunday muhim jarayon yo'lga qo'yiladi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 710-sonli qarori huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

BU BIZGA NIMA BERADI?

Aholi sonini ro'yxatga olish mamlakatda yashovchi barchaga tegishli bo'lgan demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil va e'lon qilishning yagona jarayonidir. U aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai bo'lib, kelgusi 10-20 yillik rivojlanishning prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun ishonchli poydevor yaratadi. Aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

O'z navbatida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot tarzida foydalaniladi. Aholi sonini ishonchli hisoblash bo'yicha rasmiy statistika tizimida asosiy rol o'ynaydi.

RO'YXATGA OLISH QANDAY AMALGA OSHIRILADI?

Mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi, tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uch

yilga yaqin davom etadi. Ikkinchisi, asosiy bosqich bo'lib, bunda aholi ro'yxatga olinadi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi. Bu taxminan ikki oy muddatni tashkil etadi. So'ngi bosqich qariyb uch yil davom etib, olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinib, natijalar e'lon qilinadi.

Ro'yxatga olish jarayonida to'planadigan statistik ma'lumotlar yagona elektron axborot tizimiga kiritiladi. Ya'ni bundan bu yog'iga qog'ozbozlikdan voz kechib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratiladi.


Ro'yxatga oluvchilarni tanlash ham eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ular ma'lumotlarning to'g'riligi bevosita mas'ul bo'ladi va shakllantirilgan ma'lumotlar real bo'lishi shart. Bu jarayonga jalb etiladigan xodimlar har xil yoshda va kasbda bo'lishi, birinchi navbatda, Davlat statistika qo'mitasi va uning viloyat, shahar va tuman bo'limlari xodimlari, statistika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistr-lar, tayanch doktorantlar bo'lishi mumkin.

Yoshi va kasbidan qat'i nazar, aholini ro'yxatga oluvchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi va zarurat tug'lsa, ularga qo'shimcha maslahatlar beriladi. Aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi hujjatlarga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq belgilanadi. Jarayonni davlat byudjeti mablag'lari va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtirish ko'zda tutilgan.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga binoan, yakuniy ma'lumotlarni uch tilda e'lon qilish ko'zda tutilgan. Chora-tadbirlar dasturida aholini ro'yxatga olish natijalarini rasmiy chop etish, tarqatish, axborot bilan ta'minlash va e'lon qilish, aholini ro'yxatga olishning dastlabki va yakuniy ma'lumotlarini arxivda saqlashga tayyorlash muddati 2025-yil 1-dekabr-ga qadar, deb ko'rsatilgan. Ya'ni ma'lumotlar bilan tanishishning oxirgi chegara muddati belgilangan. Biroq agarda tezkor faoliyat yuritilsa, ushbu muddatdan oldin ham e'lon qilish imkoniyati mavjud.

Bobir MEYLIYEV,
Toshkent shahar statistika
boshqarmasi Yakkasaryoy
tumani statistika bo'limi
boshlig'i

MULOHAZA



ONA TILI — MILLATNING ASOSIDIR

Hozir turli katta anjumanlarda, minbarlarda yoki maqolalarda tili-miz, uning boyligi va jozibadorligi haqida fikrlar yangramoqda. Shu bilan birga yangi qabul qilinayotgan til haqidagi me'yoriy hujjatlarga, yangiliklarga turli munosbatlar bildirilmoqda.

Kasbim o'qituvchilik, rus tili fanidan dars beraman va shu yurtning bir fuqarosi o'laroq til haqida o'z fikrlarimni bildirmoqchiman.

O'zbek tili — millat tili, u bejiz "ona tili" deb e'zozlanmaydi. Inson vatanida tug'ilar ekan o'z tuprog'ini, o'z onasini sevib, mehri qonib katta bo'ladi, ulg'aygani sayin unga mehri toblanib, asrab avaylashga, ardoqlashga harakat qiladi. Kichikligidanoq o'z onasining tilida, ona yurtining tilida shirin zamon bilan nutqi rivojlanadi. Ko'z ochib ko'rgan, aqlan tushungan muqaddas narsalarni shu tilda ifodalaydi. Demak, bu til Ona tilidir!

Ona tili — millatning ma'naviyatining qiyofasi, har bir yurt fuqarosining o'zligini, uning shu yurtga daxldorligini ko'rsatadigan, faxr-iftixor tuyg'ularini tuyadigan, millatining ramzi hisoblanadi. Inson hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois inson o'z tilini bilishi, hurmat qilishi, uning rivojida hissa qo'shishi zarurdir.

Inson har qanday chet tilini o'rganishi uchun ham, avvalo, o'z tilini, grammatikasini puxta bilishi kerak. Chunki xuddi o'z tilimizda bo'lgani kabi barcha tillarda o'ziga xos til qonuniyatlari, grammatikasi, xususiyatlari bo'ladi. Ularni o'rganishda doimo o'z tiliga solishtiriladi va shunga ko'ra o'rganiladi. Agarda o'z tili qonuniyatlarini bilmasa, o'zga tilni o'rganishga bo'lgan havasi orzudan nariga o'tmaydi. Shu jihatdan o'quvchilarga va chet tillarni o'rganishga havasmand bolalarga tavsiyam shuki, avvalo, o'z ona tilingizni chuqur o'rganing. Ana shunda faqat til o'rganish jarayonida emas, chet davlatlarga borganingizda yoki yurtimiz mehmonlari bilan suhbatlashganda ham uyalib qolmaydiz. Chunki til orqali biz o'z mentalitetimizni, qarashlarimizni ifoda etamiz, ro'yobga chiqaramiz. Biz o'z tilimizga hurmatda bo'lmasak, uni onamiz kabi e'zozlab sevmasak, yurtimizga chetdan kelguvchilardan ham shunday hurmatsizlik ko'rishimiz tabiiydir.

Buyuk marifatparvar Ismoilbek Gaspirali aytganidek: "Millatning ikki asosi bor. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutadi".

Zilola TANIQULOVA,
Xatirchi tumanidagi 24-maktabning rus tili fani
o'qituvchisi

INTERVYU

TYUTOR — TALABA
UCHUN KO'MAKCHI

Toshkent davlat yuridik universiteti rektorining buyrug'iga asosan mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari ichida birinchilardan bo'lib universitetda tyutorlik faoliyati yo'lga qo'yildi. Xo'sh, mazkur faoliyatning mazmun-mohiyati, talabalar hayotidagi ahamiyati, foydali jihatlari qanday? Tyutorlarning qanday huquq va majburiyatlari bor? Shu va boshqa savollar bilan TDYuning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Ahrorxon Hoshimxonovga murojaat qildik.



— **Ahror Mo'minovich, aytinchi, tyutor kim va ushbu faoliyatdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?**

— Tyutor — talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroficha yechim topish bilan shug'ullanadi. Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangan "Toshkent davlat yuridik universitetida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomda tyutorlarning asosiy faoliyat yo'nalishlari, huquq va majburiyatlari, maqsad va vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Nizomga ko'ra, tyutorlarning asosiy maqsadi — ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning universitet hayoti va ta'lim jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, talabalarda tanlangan kasbga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvoldan doimiy xabarador bo'lib turadi.

— **Tyutorlar qaysi yo'nalishlarda o'z faoliyatini olib boradi?**

— Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida faoliyatini olib boradi.

— **Tyutorlarning ushbu yo'nalishlar bo'yicha vazifalari xususida ma'lumot bersangiz.**

— Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lim

olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi hamda bu boradagi yangiliklardan xabarador qilib boradi.

Yigit-qizlarning o'quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to'g'ri so'zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'yadi. Iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha-yu startaplarini amalga oshirishiga ko'maklashadi.

Talabalarning darslarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlash va ushbu manbalardan unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi.

Shu bilan birga, talabalarni o'ylantiradigan qator masalalar, xususan, turar joy bilan ta'minlash, qoldirilgan darslarni o'zlashtirishda tyutorlar yoshlarga ko'makchi bo'ladi.

— **Tyutorlarning qanday huquq va majburiyatlari mavjud?**

— Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan akademik guruhlarining darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, yotoqxonaga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasi hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirish yoki jazolash, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

Shuningdek, har bir tyutor talabalarning sha'ni, qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabarador bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning o'ta-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir.

Javlon VAFOYEV suhbatlashdi

KATTA HAYOTGA
ILK QADAM

Kasb tanlash hayotning yarmini hal etish demakdir. Har bir inson o'ziga mos kasbni tanlashi o'zi uchun ham, atrofdegilar uchun ham foydalidir.

"Hobbi" tushunchasi ham bor. Asosiy egallanadigan kasb bilan shunchaki qiziqishni aslo adashtirmaslik lozim. Masalan, kimdir qo'shiq kuylashni yaxshi ko'radi, lekin unda boshqa bir sohaga, aytalik, iqtisodiyot, matematikaga qiziqish va layoqat ko'proq. Shunday hollarda yoshlar o'ta-onalari va ustozlari maslahatiga muhtoj bo'ladi.

Hamma ham bolaligida qator kasblarni orzu qiladi. Ammo ularning ko'p qismi bolalik orzusi va havasi bo'lib qoladi. Bolaligida shifokor, o'qituvchi, uchuvchi, harbiy bo'lishni orzu qilmagan odam bo'lmas kerak. Ulg'ayib hayotning past-balandini ko'rgach, kim bo'lish haqida chuqurroq o'ylay boshlaymiz.

Kechagina maktabni tamomlab katta hayot ostonasida turgan o'smirlar uchun eng katta muammo "Kim bo'lsam ekan?" degan savolga javob topishdir. O'quvchilarning asosiy qismini maktabda o'tkazishini hisobga olsak ularni to'g'ri yo'lga boshlash, qiziqish va qobiliyatiga mos kasbga yo'naltirish biz, ustozlarning vazifamizdir. Biz bolalarga yaxshi dars berish bilan birga ularni har tomonlama tushunuvchi do'st ham bo'lishimiz va katta hayotga qadam qo'yishida yordam berishimiz lozim.

Men maktabda o'quvchilarning bilan kasb tanlash borasida turli suhbatlar olib boraman, fikr almashamiz, ularning iste'dodini baholash va ikki yo'lidan qayirib yurishini bilmay turgan o'quvchilarga bir qarorga kelishida yordam beraman. Bu yil maktabimizning 56 nafar o'g'il-qizi jonajon dargohi bilan xayrlashdi. Ular "Kim bo'lsam ekan?", "Men orzu qilgan kasb", "Dunyoda kasblar ko'p" kabi mavzularda insho va bayonlar yozishgan. Maktabimizda "Kasbim — faxrim" nomli tadbir o'tkazdik. Qatnashuvchilar kasb-hunarini ulug'lovchi she'r, aforizm va xalq maqollardan namunalarni keltirdi. Tadbir oxirida o'qituvchi bolalarga kasb haqida savollardan tashkil topgan anketani tarqatdi. Anketada: "Sen kim bo'lmoqchisan? O'ta-onangning kasbi senga yoqadimi? Hobbining nima? Qanday to'garaklarga qatnashasan? Kasb-hunar tanlashda kutubxonaning o'rni qanday? Kompyuterning-chi?" kabi savollardan iborat edi. So'rovnomani anonim o'tkazilganiga ularga o'z fikri-



ni erkin ifoda etish imkonini berdi. Shundan so'ng o'quvchilarning o'zlari yashab turgan "Qangliobod" va "Nurliobod" mahallalarida istiqomat qilayotgan o'z kasbidan baraka topgan insonlar haqida hikoya qilib berishdi.

— Buvam ko'p yillar maktabda boshlang'ich sinflarga dars bergan, — deydi o'quvchilardan biri. — Mana olti yildirki, keksalik gash-tini suriyapti. Nafaqada bo'lsa ham o'zi sevgan duradgorlik kasbi bilan mashg'ul. Kunlarning birida buvam choy ustida: "Duradgorlik bilan shug'ullangan yillarimni umrimning eng yaxshi lahzalari deb hisoblayman", dedi faxr bilan. Haqiqatan ham, buvam yasagan eshik-romlar hammaning havasini keltiradi. Ustaxonadagi 70 dan ziyod asbob-uskunalar katta bobomizdan meros bo'lib qolgan.

Yana bir bola esa:

— Bizning "Qangliobod" mahallamizda yashovchi Ya Li ham hamamaga tanish. Uning Yoshi 65 da. Lekin haligacha sevimli tikuvchilik kasbini e'zozlab, ardoqlab kelayotir. U yana turli tikuv mashinalarini ham ta'mirlay oladi. O'z hunari ortidan mahallamiz ahlining og'irini yengil qilib kelaypti, — deydi.

Kasbining haqiqiy egalari, haqiqiy ixlosmandlarigina yillar o'tsa-da ular kabi elga naf keltirishdan tolmaydi. Tanlangan kasbini puxta egallash har bir insonning o'ziga bog'liq. Birinchi navbatda kasbga mehr-muhabbat bo'lsa bas.

Dilrabo SAYDULLAYEVA,
G'allaorol tumanidagi 42-maktabning amaliyotchi psixologi

O'ZBEKISTONDA HAVO HARORATI KESKIN ISIB KETGANI

MUTAXASSISLARDA TURLI MULOHAZALARNI TUG'DIRMOQDA

Hozirda yog'ingarchiliklarning yo'qligi va Zarafshon daryosi o'zanida suv oqimini kamligi sababli yer osti suvlarining sathi (debiti) pasayib ketgan.

Natijada inshootlardagi nasos uskunalarining mo'tadil ishlashida yer osti suvi zaxirasining yetishmasligi sababli Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari, Pastdarg'om, Nurobod, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Narpay, Payariq va Oqdaryo tumanlari aholisini toza ichimlik suvi ta'minotida uzilishlarga olib kelmoqda (Manba: <https://t.me/uzsuvsamarqand/844>)

P.S.: Afsuski, istiqbolda bunday "yangiliklar" yana ko'payadi. Hozirdan muammoning ilmiy va kompleks yechimlarini o'ylash kerak.

Nazarimizda, Hukumat tabiat o'zgarishlari ortidan yuzaga kelayotgan muammolarga jiddiy qarashni boshlashi lozim. Ayniqsa, ekologiya bo'yicha reja hamda dasturlarni qayta ko'rib chiqishi kerak. Bir martalik tadbirlardan, kampaniyabozlikdan tiyilgan holda keng jamoatchilik ishtirokida natijasi aniq, barqarorligi kafolatlangan, iqtisodiy asosli va muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarga qo'l urish vaqti keldi.

Oddiy misol. Har yili hasharlarda millionlab daraxt ekishlarni to'xtatish kerak. "Toshkentning har bir tumanida 1 million dona ko'chat ekamiz", degan yolg'on kampaniyalarga ham barham berilishi lozim. Chunki o'ttiz yillik tariximizda har hashar yakunida e'lon qilingan ko'chatlar amalda ekilganida yoki o'sganida, O'zbekiston allaqachon o'rmonzorga aylanib ketgan bo'lar edi. Ko'chatlar va ko'ka-

lamzorlashtirish milliardlab mablag'lar oson o'zlashtiriladigan sohaga aylangani qoldi, xolos. Har bir daraxt ko'chati o'tqazilishidan tortib, o'sishi, parvarishi, sug'orilishi kafolatlangan, javobgarligi aniq bo'lgan tizim yaratilmas ekan, yaxshisi, daraxt ekilmagani ma'qul. O'zimizni ham, boshqalarni ham aldamay qo'ya qolaylik.

Qurg'oqchilik bundan buyog'iga chuqurlashsa chuqurlashadiki, mo'jiza yuz berish ehtimoli juda past. Shuning uchun hozirdan nafaqat aholi punktlariga ichimlik suvi quvurlarini tortish, balki suv zaxiralarni yaratish, qayta ishlash, muqobil texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi yerlarini muttasil optimallashtirib borish, agrar sohada suvdan foydalanishning tejamon texnologiyalarini amalda qo'llash, hozirdan ushbu masalalarga investitsiyalarni ko'paytirish, va eng muhimi, bu ishlarning ustidan jamoatchilik nazoratini

o'rnatish zarur. Hayot-mamot masalasini pul o'zlashtirish jarayoniga aylantirib yuborishdan yomoni yo'q. Chunki kelajakda paxtalarimiz tugul xalqimizni ichimlik suvi bilan ta'minlash og'ir vazifa bo'lib qolishi mumkin.

Tabiat o'zgarishlariga siyosatchilar jiddiy qarashlari lozim. Tabiat o'zgarishlari asta-sekin ijtimoiy-siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi. Uzoq tarixda ham, yaqin tarixda ham bunga misollar yetarlicha. Yangi O'zbekiston yangi ekologik realliklarni ham tan olishi lozim. Ancha kechikdik, lekin yanada kechikishning oqibatlarini og'irroq bo'lishi mumkin. Hozirdan kirishishimiz, kirishganda ham kampaniyabozlikdan tiyilishimiz, darrov milliard-miliard dollarlik gigant loyihalarga emas, balki ilimga, dunyo tajribasiga asoslanib, boschiqlik bilan ishlashga o'tishimiz kerak.

(davletovuz telegram kanalidan olindi)

Iqlim o'zgaryapti, o'zgaranda ham juda yuqori trendda o'zgaryapti. Buni O'zbekiston misolida o'rtacha yillik havo harorati qiymatlarining o'tmishga nisbatan keskin isib ketayotganida ko'rish mumkin. O'tmish deganim, O'zbekistonda 150 yildan beri kuzatuvlar olib borilmoqda. Bir xil asbob va bir usul yordamida.

Iqlim o'zgaryotgani yuqori atmosferadagi siklon va antitsiklon oqimlari harakatida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Oldinlari (1961-2010-yil) O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonga yilning 22 foiz davrida 5 turdagi sovuq oqimlar kirib kelgan. Hozir bu ko'rsatkich 10 foizga tushib qoldi. Yaqin yillarda bu son bir xonali raqamga aylanishi tabiiy. Taajjubki, janubdan nam siklonlar va issiq havo oqimlari kirib kelishi tobora ortib ketayotgani bilan bog'liq iqlim anomalialari soni ortib ketayotganida yaqqol ko'rinmoqda.

Yangi iqlim epoxasi O'zbekistonda bora-bora subtropik yoki tropik iqlim hududlariga mos tushuvchi iqlim xususiyatlari kuzatilishiga olib keladi. To'g'ri, O'zbekiston markazda, havosi o'ta quruq, keskin kontinental regionda joylashgan, bu yerda ko'rinish boshqacha bo'lishi ham mumkin.

Kutilajak yangi iqlim epoxasi birinchi galdagi oziq-ovqat xavfsizligi noqarorligida namoyon bo'ladi. Kelib chiqishi tog'oldi hududlariga borib taqaluvchi sabzavotlar birinchi galdagi aziyat chekadi. Chunki ularning turli ko'rinishdagi gibridlari ham iqlimga moslasha olmaydi. Tekislik hududlarida igna bargli daraxtlar ekmaslik tavsiya etiladi. Archalar sovuqsevar — xohlaysizmi, yo'qmi, kelgusida o'zbek zamini "ularniki" bo'lmaydi. Keng bargli flora dunyosiga urg'u qaratish kerak.

Sog'liqni saqlash tizimida ham oldinda turli "surprizlar" kutub turibdi. Iqlimning ma'lum davrlarga xos muttasil-isishi o'tmish viruslarni "uyg'otib" yuborishi mumkin.

Havo tarkibidagi uglerod dioksidi ortishi inson tanasida modda almashinuvda ma'lum o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Yuqori haroratli davrning ortishi kanalarning faollashishiga olib keladi. Jaziramalar yurak qon-tomir kasalliklari, chang-bo'ronlar o'pka, nafas olish, allergik kasalliklar ortishiga olib keladi. Tropik o'lkalarda ofatlar ortadi. Shundoq ham yashash tarzi, iqtisodiy oqsoqlangan bu mintaqalarda insonlar kasallik tarqatuvchiga aylanadi. Molyariya, denge isitmasi, vabo kabi yuqumli kasalliklar avj oladi.

Is gazi konsentratsiyasi ortishi birlamchi ekin mahsulotlari ortishiga olib keladi, ammo ma'lum nostabil ekotizimlar mahsuldorlikni kamaytiradi ham. "Yashillik bor, urug' yo'q" teoreyasi oldinga chiqadi. Zararkunanda hasharotlar ko'payadi. Iqlim isishi, nostabil qish mavsumi yaylovlardagi yashillik siklini buzadi. Aldamchi uyg'onish davrida o't-o'lanlar uyg'onib, ortidan kelgan sovuqda nobud bo'ladi. Bu keyingi yil uchun kamhosilik degani. Yaylovlar dunyoda chorva mollarinin 50 foizini ozuqa bilan ta'minlaydi, tabiiyki yaylov bilan bog'liq salbiy holatda chorva go'shti narxi muttasil oshib boraveradi.

Iqlim isishini sekinlashtirish birgina O'zbekistonning o'ziga bog'liq emas, dunyo mamlakatlari Parij bitimida ko'rsatilgan shart-sharoitni birgalikda, hamnafas, ham-yelka amalga oshirishlari kerak. Tabiiyki, buning iloji yo'q. O'zbekiston oldida moslashish va iqlimning salbiy ta'sirlarini yumshatish masalasi turibdi. Yuqorida amaldorlar mutaxassislarining fikrini inobatga olmay, islohotlarni tapir-tupur davom ettiraverar ekan, aziyatlar yuqoridagidagina xavfli va ertaroq, tezroq kuzatilishi mumkin.

Erkin ABDULAXATOV

(uzb_meteo telegram kanalidan olindi)



Karantinda yozilgan mashhur asarlar

Koronavirus pandemiyasi sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida karantin hukm surmoqda. Bu davrda tashkilotlar masofadan ish olib borayotgan bo'lsa, do'kon, kafe kabi bir qator joylar butkul yopib qo'yilgan. Karantin faqat to'rt devorga qamalib o'tirmoq degani emas, avvallari vaqt topolmagan ba'zi ishlarni bitkazib o'lmoq uchun fursatdir. Shunday ekan, adabiyot tarixida karantinda yaratilgan asarlarni sizga tanishtirib o'tmoqchimiz.



Aleksandr Pushkin, "Yevgeniy Onegin"

Bu asar asosida ko'plab filmlar suratga olingan, opera ham yozilgan. Lekin 1830-yilning kuzida Moskvada vabo epidemiyasi boshlangan. Bu holat Pushkinni qishloqqa — oila a'zolari yoniga ketishga majbur qilganidan ko'pchilik bexabar bo'lsa kerak. Adib ham mumtoz adabiyotga, ham dunyoning eng yaxshi asarlari sirasiga kiruvchi bu romanini karantin davrida yozgan.

Anton Chexov, "Oltinchi raqamli palata"

Chexov eng yaxshi asarlarini vabo hukm surayotgan vaqtlarda yozgan taniqli rus yozuvchisidir. Ayni shunday paytlarda, ya'ni 1892-1899-yillarda "Oltinchi raqamli palata" va "Qora rohib" kabi mashhur romanlarini yozadi.

Chexov u paytlari qishlog'ida yolg'izlikda yashardi. U bu yerda vabo va boshqa turli kasalliklardan qiynalayotgan odamlarga davo izlardi. Yozuvchining asl kasbi shifokorlik edi. Chexov sil kasalligidan aziyat chekkan va shu kasallik uni 1904-yilda bu dunyodan olib ketgan.



Jon Milton, "Yo'qotilgan jannat"

Ingliz yozuvchisi Jon Milton "Yo'qotilgan jannat" asari bilan shuhrat qozongan. Milton asarni yozayotganida ikki ko'zi ham ko'rmasdi. 1652-yildan 1667-yilga qadar u o'z asarini oila a'zolari va do'stlariga aytib turib o'qqa ko'chirtirgan. 1665-1666-yillarda Londonda yuzaga kelgan vabodan saqlanmoq uchun yozuvchining oilasi yangi uyga ko'chib ketadi. U ayni shu vaqtda o'zining "Yo'qotilgan jannat"ini yozib bitkazadi.



Jovanni Boccaccio, "Dekameron"

"Dekameron" italiyalik yozuvchi Jovanni Boccaccio tomonidan taxminan 1352-1354-yillarda yozilgan yuzdan oshiq novellalar to'plamidir. Kitobdagi hodisalar 1348-yildagi taun epidemiyasi vaqtida yuz bergan. Boccaccio bu asarini Florensiyada hukm surgan taun epidemiyasi vaqtida yozgan. Muallifning o'zi ham, qahramonlari kabi vabodan qochmoq va Italiya shaharlariga sayohat qilmoq uchun Florensiyani tark qilgan.



Tomas Mann, "Afsunkor tog"

Bu asar olmon adabiyotining eng go'zal namunalaridan biri sanaladi. Tomas Mannning "Afsunkor tog" asari 1924-yilda chop qilingan. Kitobda Ishvechraning Alp tog'laridagi silni davolovchi shifxonada muolaja olgan do'sti haqida so'z boradi. Muallif o'ziga bu mavzu yaqin edi, chunki turmush o'rtog'i ham sil xastaligidan aziyat chekardi.

1912-yilda Mann Ishvechra sanatoriysiga ayolini olib boradi. Bu ishi orqali u o'z "Afsunkor tog"ini yaratadi.



Lukian, "Aleksandr va soxta payg'ambar"

Lukian hozirgi Turkiyaning chekkasida joylashgan Samosata shahrida tavallud topgan. U mashhur dramaturg va satirik edi. Uning asarlaridan biri hisoblangan "Aleksandr va soxta payg'ambar"da hayotning qarama-qarshiliklariga sehrli izoh atargan rimliklar tasvirlangan.

Aleksandr O'rta osiyodan kelgan real shaxsning ismidir. U haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Lekin uning o'zi qo'lidan sehrli ishlar kelishini va istalgan kasallikka davo topa olishini iddao qilardi. Unga 165-yilda boshlangan taun epidemiyasi zamonida ishonishgan. Bu vaqtda, Antonin nomini olgan bu vabo Rim imperiyasini batamom egallab olgandi. Rimliklar o'zlarini karantinga olishga, bir-biridan uzoq bo'lishga urindilar. Shunday paytda Lukianing shifokor Aleksandr haqidagi satirik asari dunyoga keladi.

Uilyam Shekspir, "Romeo va Julyetta"

Uilyam Shekspir butun umri davomida taun epidemiyasi bilan yashagan. Hatto bolaligida Shekspir 1564-yilda yuz bergan taun epidemiyasi vaqtida omon qolganlardan biri bo'lgan. Taun nomi yozuvchining ko'plab asarlarida, shu jumladan, mashhur "Romeo va Julyetta" pyesasida ham aytib o'tilgan. 1605-1606-yillar Shekspirning ayni ijodiy gullagan davri hisoblanadi. Bu paytda "Qirol Lir", "Makbet" hamda "Antoniy va Kleopatra" asarlari dunyoga kelgan. Ekspertlarning aytishiga ko'ra, uning mahsuldorligi bu davrda Ingiltarada taun epidemiyasining yoyilgani bilan bog'liqdir.



Tarjimon va to'plovchi Rahmat BOBOJON

XOJA MAHMUD ANJIR FAG'NAVY

"Xoja Mahmud Anjir FAG'naviy" ziyoratgohi Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Anjirbog' qishlog'ida joylashgan. U yetti pir ziyoratgohidan biri sanaladi.

Ziyoratgoh sho'rolar zamonida qarovsiz, juda xarob holda bo'lgan. Ziyoratgohdagi masjid esa kolxoz omboriga aylantirilgan. Istiqlol sharofati bilan bu maskanda ham qayta qurish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1999-2000-yillarda hahar yo'li bilan Xoja Mahmud Anjir

Fag'naviy qabri ustiga ikki qavatli maqbara, 300 kishini sig'diradigan uch ayvonli yangi jome' masjid, hovuz, darvozaxona, mehmonxona, zamonaviy tahoratxonalar qurib bitkazildi.

Ziyoratgohning umumiy yer maydoni 1,5 gektarni tashkil etadi. Bu yerdagi masjid rasman faoliyat

ko'rsatib kelmoqda. Uning hovlisiga manzarali va mevali daraxtlar o'tkazilib, bog'-rog'lar barpo etilgan. Ziyoratga va namozga keladiganlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Muqaddas qadamjolarni o'quvchi yoshlar bilan o'rganish maroqlidir.

Munisa QOBILOVA,
Vobkent tumanidagi
18-maktabning boshlang'ich
ta'lim o'qituvchisi

